



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	



TALABALARDA SPORT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR

Ismatov Feruz Mamarasulovich

Navoiy davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sport kompetensiyasi talabaning jismoniy tayyorgarligi, sportga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlari, motivatsiyasi, o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishi hamda sport faoliyatida samarali muloqot va hamkorlik qila olish qobiliyatlarining integrativ majmui sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida sport kompetensiyasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi motivatsion, mazmuniy, metodik, psixologik, tashkiliy, kommunikativ, individual va moddiy-texnik pedagogik omillar tizimlashtirildi. Shuningdek, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va refleksiv yondashuvlarning talabalar sport kompetensiyasini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari sport mashg'ulotlarini faqat jismoniy sifatlarni rivojlantirishga emas, balki talabaning sport faoliyatidagi mustaqilligi, motivatsiyasi, mas'uliyati, kommunikativligi, o'zini nazorat qilishi va amaliy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatdi. Aniqlangan pedagogik omillar asosida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan pedagogik modeli va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sport kompetensiyasi, talabalar, pedagogik omillar, sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, motivatsiya, sport mashg'ulotlari, pedagogik shart-sharoitlar, individual yondashuv, refleksiya, oliy ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific, theoretical, and practical analysis of the pedagogical factors influencing the development of students' sports competence in higher education institutions. Sports competence is interpreted as an integrative set of students' physical fitness, theoretical knowledge in the field of sports, practical skills, values related to a healthy lifestyle, motivation, the ability to independently organize their activities, as well as the ability to communicate and cooperate effectively in sports activities. The study systematizes motivational, content-related, methodological, psychological, organizational, communicative, individual, and material-technical pedagogical factors influencing the development of sports competence. It also examines the pedagogical potential of competency-based, learner-centered, activity-based, and reflective approaches in developing students' sports competence. The findings indicate the need to direct sports training not only toward the development of physical qualities but also toward enhancing students' independence, motivation, responsibility, communication skills, self-control, and practical competence in sports activities. Based on the identified pedagogical factors, an improved pedagogical model for developing students' sports competence and a set of scientific and practical recommendations were developed.

Key words: sports competence, students, pedagogical factors, sports pedagogy, physical education, competency-based approach, motivation, sports training, pedagogical conditions, individual approach, reflection, higher education.



Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически анализируются педагогические факторы, влияющие на развитие спортивной компетентности студентов в высших образовательных учреждениях. Спортивная компетентность рассматривается как интегративная совокупность физической подготовленности студента, теоретических знаний в области спорта, практических навыков, ценностей здорового образа жизни, мотивации, способности самостоятельно организовывать свою деятельность, а также эффективно взаимодействовать и сотрудничать в спортивной деятельности. В ходе исследования были систематизированы мотивационные, содержательные, методические, психологические, организационные, коммуникативные, индивидуальные и материально-технические педагогические факторы, влияющие на развитие спортивной компетентности. Также раскрыты педагогические возможности компетентностного, личностно ориентированного, деятельностного и рефлексивного подходов в формировании спортивной компетентности студентов. Результаты исследования показали необходимость направленности спортивных занятий не только на развитие физических качеств, но и на формирование самостоятельности, мотивации, ответственности, коммуникативности, навыков самоконтроля и практической компетентности студентов в спортивной деятельности. На основе выявленных педагогических факторов разработаны усовершенствованная педагогическая модель развития спортивной компетентности студентов и научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: спортивная компетентность, студенты, педагогические факторы, спортивная педагогика, физическое воспитание, компетентностный подход, мотивация, спортивные занятия, педагогические условия, индивидуальный подход, рефлексия, высшее образование.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning jismoniy, intellektual, ijtimoiy va kasbiy salohiyatini yuksaltirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonda jismoniy tarbiya va sport faoliyati talabalarning sog'lom va faol hayot tarzini shakllantirish bilan bir qatorda, ularda mustaqillik, mas'uliyat, iroda, qat'iyat, jamoada ishlash, liderlik va o'z-o'zini boshqarish kabi muhim sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy oliy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini faqat sport natijalari yoki jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan baholash yetarli emas. Talabani sport faoliyatida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi, jismoniy mashqlarni mustaqil va to'g'ri bajarishi, mashg'ulotlarni rejalashtirishi, o'zining jismoniy holatini nazorat qilishi, sport faoliyatiga ijobiy munosabat bildirishi hamda sog'lom turmush tarzini kundalik hayotida qo'llashi uning sport kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni ommaviy sportga jalb etish va sport infratuzilmasini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning sport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sport to'garaklari va klublari faoliyatini rivojlantirish hamda talabalarni muntazam jismoniy faollikka jalb etish mazkur vazifalarning amaliy ifodasidir.

Talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirish masalasi kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuvda ta'lim jarayonining natijasi faqat bilimlarni egallash bilan emas, balki ularni real faoliyatda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu sababli sport ta'limida ham talaba sportga oid bilimlarni egallashi bilan birga, ularni amaliy mashg'ulotlarda mustaqil qo'llashi, turli sport vaziyatlarida to'g'ri qaror qabul qilishi va o'z faoliyatini baholay olishi lozim.

Sport kompetensiyasi murakkab va ko'p komponentli pedagogik hodisa bo'lib, uning rivojlanishi bir qator o'zaro bog'liq omillarga bevosita bog'liqdir. Jumladan, talabani sportga bo'lgan ichki motivatsiyasi, trener-pedagogning kasbiy va pedagogik mahorati, mashg'ulotlarning mazmuni va metodik ta'minoti, individual yondashuv, pedagogik muhit, zamonaviy sport vositalaridan foydalanish, muntazam monitoring va refleksiya sport kompetensiyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan sport kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida talaba ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaralishi lozim. Bunda trener yoki o'qituvchining vazifasi faqat sport mashqlarini ko'rsatish va nazorat qilishdan iborat bo'lmay, balki talabani motivatsiyasini shakllantirish, mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash, individual imkoniyatlarini hisobga olish va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Shuningdek, sport kompetensiyasining rivojlanishida psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Sport faoliyatidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka munosabat, o'ziga bo'lgan ishonch, stressni boshqarish, musobaqa sharoitida o'zini nazorat qilish va maqsadga intilish kabi sifatlari sport kompetensiyasining amaliy namoyon bo'lishini belgilaydi.

Sport mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha usuli, videotasvir asosida tahlil, raqamli monitoring, mobil ilovalar va individual mashg'ulot dasturlaridan foydalanish talabani sport faoliyatidagi faolligini oshirishga imkon beradi.



Shu nuqtai nazardan, talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va samarali pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etish bugungi sport pedagogikasining dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlash, ularning mazmunini ilmiy jihatdan asoslash hamda sport kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining asosiy vazifasi talabalarni muayyan sport harakatlariga o'rgatish bilan cheklanib qolmay, ularda sport faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, jismoniy imkoniyatlarini baholash, sog'lom turmush tarziga amal qilish, sport mashg'ulotlarini rejalashtirish va jamoada samarali faoliyat olib borish kabi kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, "sport kompetensiyasi" tushunchasi talabani sport faoliyatida bilim, ko'nikma, malaka, motivatsiya va amaliy tajribani yaxlit holda qo'llay olish qobiliyatini ifodalovchi kompleks pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tadqiqotlarda kompetensiya faqat bilimlar yig'indisi emas, balki olingan bilimlarni real faoliyat sharoitida qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shu sababli jismoniy tarbiya va sport sohasida kompetensiyaviy yondashuv talabani nazariy bilimlari bilan bir qatorda harakat faoliyati, taktik va strategik fikrlash, o'z faoliyatini nazorat qilish, qaror qabul qilish hamda jamoaviy hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Sport kompetensiyasining mazmunini aniqlashga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda uning tarkibiga bir nechta o'zaro bog'liq komponentlar kiritiladi. Jumladan, kognitiv komponent sport nazariyasi, qoidalar, mashg'ulot tamoyillari va xavfsizlik qoidalariga oid bilimlarni; motor komponent sport texnikasi va harakat ko'nikmalarini; motivatsion komponent sport bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqish va ichki ehtiyojni; refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini qamrab oladi. Shu jihatdan sport kompetensiyasini shakllantirish kompleks pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Mazkur yondashuvlar talabalar sport kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy qismlari va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni kompleks o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, umumiy pedagogika, didaktika, sport psixologiyasi hamda kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umimlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali sport kompetensiyasining pedagogik mazmuni va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so'rovi, ekspert baholash va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanish tavsiya etildi. Ushbu metodlar talabalar sportga bo'lgan munosabati, motivatsiyasi, mashg'ulotlardagi faolligi, mustaqil faoliyati, jismoniy tayyorgarligi va sportga oid bilim hamda ko'nikmalarining rivojlanish holatini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida sport kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlar asosida ko'rib chiqildi:

1. **Motivatsion komponent** - talabani sport faoliyatiga qiziqishi, ichki motivatsiyasi va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoji.
2. **Kognitiv komponent** - sport nazariyasi, jismoniy mashqlar, sog'lom turmush tarzi va sport xavfsizligiga oid bilimlar.
3. **Amaliy-faoliyat komponenti** - sport mashqlarini to'g'ri bajarish, texnik va taktik harakatlarni qo'llash, jismoniy sifatlarni rivojlantirish.
4. **Kommunikativ komponent** - jamoada ishlash, hamkorlik qilish, sport etikasi va samarali muloqot.
5. **Refleksiv komponent** - o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, natijalarni baholash va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish.

Olingan natijalarni qayta ishlashda o'rtacha arifmetik qiymat, foiz ko'rsatkichlari, taqqoslama tahlil va pedagogik diagnostika usullaridan foydalanish ko'zda tutildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni tahlil qilish natijasida sport kompetensiyasi birgina jismoniy tayyorgarlik bilan belgilanmasligi, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan pedagogik, psixologik, metodik va tashkiliy omillar majmui orqali shakllanishi aniqlandi.

Sport kompetensiyasini rivojlantirishning samaradorligi, avvalo, pedagogik jarayonning maqsadli tashkil etilishi, talabaning individual xususiyatlari hisobga olinishi, mashg'ulotlar mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilishi va muntazam pedagogik monitoring olib borilishiga bog'liq.

Tahlillar asosida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillar quyidagicha tizimlashtirildi:

1. Motivatsion omil

Talabaning sport faoliyatiga bo'lgan ichki qiziqishi sport kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Agar talaba sport mashg'ulotlarining shaxsiy salomatligi, kasbiy faoliyati va hayot sifati uchun ahamiyatini anglab etsa, uning mashg'ulotlardagi faolligi va mustaqilligi ortadi.

Motivatsiyani rivojlantirishda individual maqsadlarni belgilash, ijobiy rag'batlantirish, muvaffaqiyatni e'tirof etish va talabaning o'z natijalarini kuzatib borishi muhim ahamiyatga ega.

2. Mazmuniy-metodik omil

Sport mashg'ulotlarining mazmuni talabaning yosh, jismoniy va individual xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Mashg'ulotlarda nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning o'zaro integratsiyasi ta'minlanishi sport kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Individual yondashuv omili

Talabalarning jismoniy imkoniyatlari, sport tajribasi, qiziqishlari va sog'lomlik darajasi bir xil emas. Shu sababli barcha talabalar uchun bir xil mashg'ulot modelidan foydalanish kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish, mashqlar yuklamasini moslashtirish va shaxsiy rivojlanish dinamikasini hisobga olish sport kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

4. Trener-pedagogning kasbiy kompetentligi

Trenerning pedagogik mahorati sport kompetensiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Trener sport texnikasini o'rgatish bilan bir qatorda, talabaning motivatsiyasini oshirishi, unga individual tavsiyalar berishi, pedagogik muloqotni to'g'ri tashkil etishi va mashg'ulot jarayonida qulay psixologik muhit yaratishi zarur.

5. Psixologik-pedagogik muhit

Sport mashg'ulotlarida o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va ijobiy munosabatga asoslangan muhitni yaratish talabaning sport faoliyatidagi faolligini oshiradi.

Ayniqsa, sportdagi muvaffaqiyatsizliklarni jazolash vositasi sifatida emas, balki rivojlanish uchun imkoniyat sifatida ko'rsatish talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

6. Faoliyatga asoslangan pedagogik omil

Sport kompetensiyasi, avvalo, amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu sababli mashg'ulotlarda talabani faol ishtirokchi sifatida jalb etish, muammoli sport vaziyatlarini hal qilish, jamoaviy mashqlar va amaliy topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi.

7. Raqamli-pedagogik omil

Zamonaviy raqamli texnologiyalar sport kompetensiyasini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Videotahlil, mobil ilovalar, elektron kundaliklar, onlayn monitoring va raqamli diagnostika vositalari talabaning o'z sport natijalarini mustaqil kuzatishiga imkon beradi.

8. Monitoring va reflektiv omil

Sport kompetensiyasining rivojlanishini muntazam monitoring qilish ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi va keyingi maqsadlarini belgilashi esa reflektiv kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi.



1-jadval: Talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarning tavsifi

№	Pedagogik omil	Mazmuni	Amalga oshirish shakllari	Kutilayotgan natija
1	Motivatsion omil	Sportga qiziqish va ichki motivatsiyani shakllantirish	Individual maqsadlar, rag'batlantirish, motivatsion suhbatlar	Sport faoliyatiga barqaror qiziqish
2	Mazmuniy-metodik omil	Nazariy bilim va amaliy faoliyat integratsiyasi	Nazariy mashg'ulotlar, amaliy treninglar, sport topshiriqlari	Sportga oid bilim va ko'nikmalarning rivojlanishi
3	Individual yondashuv	Talabani imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olish	Individual mashg'ulot dasturlari, differensial topshiriqlar	Shaxsiy rivojlanish dinamikasining oshishi
4	Trener-pedagog omili	Pedagogik va sport metodik kompetentlik	Konsultatsiya, murabbiylik, individual tavsiyalar	Mashg'ulotlar samaradorligining oshishi
5	Psixologik omil	Ijoiy psixologik muhit va o'ziga ishonch	Qo'llab-quvvatlash, jamoaviy mashqlar, psixologik treninglar	Stressga chidamlilik va o'ziga ishonch
6	Faoliyatga asoslangan omil	Talabani faol sport faoliyatini tashkil etish	Keyslar, muammoli vaziyatlar, musobaqalar	Mustaqil qaror qabul qilish va amaliy kompetentlik
7	Raqamli omil	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	Videoanalitika, mobil ilovalar, elektron monitoring	O'z-o'zini nazorat qilish va tahlil qilish
8	Refleksiv omil	O'z faoliyati va natijalarini tahlil qilish	Refleksiya, portfolio, o'z-o'zini baholash	O'z faoliyatini boshqarish qobiliyati
9	Tashkiliy omil	Sport mashg'ulotlari uchun qulay sharoit yaratish	Sport klublari, to'garaklar, musobaqalar	Muntazam sport faoliyati
10	Moddiy-texnik omil	Zamonaviy sport jihozlari va infratuzilma	Sport zallari, inventarlar, raqamli qurilmalar	Mashg'ulotlarning sifat va samaradorligi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur omillar alohida holda emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda ta'sir ko'rsatgandagina talabalar sport kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Sport kompetensiyasining rivojlanishida quyidagi pedagogik ketma-ketlik samarali hisoblanadi:

Olingan natijalar zamonaviy kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalari bilan uyg'unlikda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari sport kompetensiyasi ko'p komponentli pedagogik hodisa ekanligini va uning shakllanishi bir qator o'zaro bog'liq omillarga bog'liqligini ko'rsatdi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan talaba sport faoliyatida faqat nazariy bilimlarni egallab qolmasdan, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi kerak. Masalan, jismoniy mashqlar texnikasini bilishning o'zi yetarli emas. Talaba mashqlarni mustaqil bajarishi, yuklamani nazorat qilishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi va o'zining jismoniy holatini baholay olishi zarur.

Motivatsion omil sport kompetensiyasining rivojlanishida boshlang'ich va doimiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Tashqi rag'batlantirish qisqa muddatli faollikni ta'minlashi mumkin, biroq uzoq muddatli sport faoliyati uchun talabani ichki motivatsiyasini shakllantirish muhimdir.

Individual yondashuv ham sport kompetensiyasini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sport tajribasi, qiziqishlari va imkoniyatlari turlicha bo'lganligi sababli pedagogik jarayonni differensial tashkil etish zarur. Bunda individual mashg'ulot dasturlari va rivojlanish maqsadlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Faoliyatga asoslangan yondashuv sport kompetensiyasining amaliy xarakterini hisobga oladi. Sport kompetensiyasi real sport faoliyati jarayonida shakllanadi. Shu bois mashg'ulotlarda musobaqa elementlari, muammoli sport vaziyatlari, jamoaviy topshiriqlar va mustaqil mashqlarni qo'llash talabani amaliy kompetentligini oshiradi.

Sport kompetensiyasining rivojlanishida trener-pedagogning roli ham alohida ahamiyatga ega. Trenerning pedagogik faoliyati talabani sport natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatish bilan birga, uning sportga bo'lgan munosabatini ham shakllantiradi. Pedagogik jihatdan kompetent trener talabani xatosini faqat salbiy natija sifatida emas, balki keyingi rivojlanish uchun pedagogik imkoniyat sifatida ko'rib chiqadi.



Psixologik omillar sport faoliyatida ayniqsa muhimdir. Musobaqa va mashg'ulotlar jarayonida yuzaga keladigan stress, muvaffaqiyatsizlik, charchoq yoki raqobat sharoitida o'zini boshqara olish talabani sport kompetensiyasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish esa sport kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Videoanalitika orqali sport texnikasidagi xatolarni ko'rish, mobil ilovalar yordamida mashg'ulot natijalarini qayd etish va elektron monitoring orqali rivojlanish dinamikasini kuzatish talabani o'z faoliyatiga mas'uliyatini oshiradi.

Refleksiv yondashuv sport kompetensiyasining yuqori darajasini ta'minlovchi omillardan biridir. Talaba o'z faoliyatini mustaqil tahlil qila olganida, xatolarining sabablarini aniqlaganida va keyingi maqsadlarini belgilaganida uning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati shakllanadi.

Tadqiqot natijalari asosida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi pedagogik modeli tavsiya etiladi:

Pedagogik maqsad → Motivatsiya → Individual yondashuv → Nazariy bilim → Amaliy sport faoliyati → Innovatsion metodlar → Monitoring → Refleksiya → Sport kompetensiyasining rivojlanishi.

Mazkur modelda barcha elementlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ulardan birining yetarli darajada tashkil etilmasligi umumiy pedagogik samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shunday qilib, talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirish faqat jismoniy mashqlar hajmini oshirish bilan cheklanmaydi. U motivatsiya, bilim, amaliy ko'nikma, psixologik tayyorgarlik, kommunikativ faoliyat, mustaqillik, refleksiya va pedagogik hamkorlikning yagona tizimi asosida tashkil etilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirish ko'p omilli pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatdi. Sport kompetensiyasi talabani jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda sportga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, motivatsiyasi, kommunikativ qobiliyati, mustaqilligi, o'z-o'zini nazorat qilishi va refleksiv faoliyatini ham qamrab oluvchi integrativ kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillar aniqlandi. Ular motivatsion, mazmuniy-metodik, individual, pedagogik-psixologik, faoliyatga asoslangan, raqamli, tashkiliy, moddiy-texnik va refleksiv omillardan iborat.

Aniqlangan omillarning o'zaro integratsiyasi sport kompetensiyasining samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, talabani ichki motivatsiyasini shakllantirish, individual imkoniyatlarini hisobga olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va trener-pedagog bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sport mashg'ulotlarida faqat reproduktiv metodlardan foydalanish zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablariga to'liq javob bermaydi. Shu sababli muammoli ta'lim, interfaol metodlar, loyiha texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish, musobaqa elementlari, videotahlil, raqamli monitoring va refleksiv metodlardan foydalanish zarur.

Sport kompetensiyasini rivojlantirishda trener-pedagogning kasbiy va pedagogik kompetentligi alohida o'rin tutadi. Trener nafaqat sport texnikasi va taktikasini o'rgatuvchi mutaxassis, balki motivator, maslahatchi, tarbiyachi va pedagogik jarayon tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Mazkur modelda pedagogik maqsad, motivatsiya, individual yondashuv, nazariy bilim, amaliy faoliyat, innovatsion metodlar, monitoring va refleksiya yagona tizim sifatida qaraladi.

Shuningdek, sport kompetensiyasini baholashda faqat jismoniy normativlar va sport natijalariga tayanish yetarli emasligi aniqlandi. Baholash jarayonida talabani motivatsiyasi, mustaqilligi, kommunikativligi, sportga oid bilimlari, amaliy ko'nikmalari, o'z-o'zini nazorat qilishi va refleksiv qobiliyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishning samaradorligi pedagogik omillarning tizimli, uzluksiz va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Mazkur yondashuv talabalar jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalar sport kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni asosiy metodologik tamoyil sifatida joriy etish lozim.

Ikkinchidan, talabalar uchun individual sport rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasiga muvofiq differensial mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.



Uchinchidan, sport mashg'ulotlarida talabalarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, motivatsion treninglar va rag'batlantirish mexanizmlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, trener-pedagoglarning kasbiy va pedagogik kompetentligini rivojlantirish maqsadida zamonaviy sport pedagogikasi, psixologiyasi, didaktikasi va raqamli texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish zarur.

Beshinchidan, sport kompetensiyasini rivojlantirishda muammoli, interfaol, loyihaviy, hamkorlikda o'qitish va refleksiv metodlardan keng foydalanish lozim.

Oldinchidan, sport kompetensiyasini baholashning kompleks mezonlarini ishlab chiqish va unda jismoniy, kognitiv, amaliy, motivatsion, kommunikativ hamda refleksiv komponentlarni hisobga olish tavsiya etiladi.

Yettinchidan, sport mashg'ulotlariga videotahlil, mobil ilovalar, elektron monitoring va raqamli diagnostika vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

Sakkizinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun sog'lom psixologik muhit yaratish, jamoaviy hamkorlik va o'zaro qo'llab-quvvatlashga asoslangan sport faoliyatini tashkil etish zarur.

To'qqizinchidan, sport kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini muntazam pedagogik monitoring qilish va olingan natijalar asosida individual rivojlanish strategiyalarini takomillashtirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6099-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2015.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari.
5. UNESCO. Quality Physical Education: Guidelines for Policy-Makers. Paris, 2015.
6. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva, 2020.
7. Bailey, R. Physical Education and Sport in Schools: A Review of Benefits and Outcomes. Routledge.
8. Kirk, D. Physical Education Futures. Routledge.
9. Mosston, M., Ashworth, S. Teaching Physical Education. Pearson Education.
10. Lave, J., Wenger, E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. Cambridge University Press.
11. Biggs, J., Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. Open University Press.
12. Shulman, L. S. "Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform." Harvard Educational Review.
13. Hattie, J. Visible Learning. Routledge.
14. Weinberg, R. S., Gould, D. Foundations of Sport and Exercise Psychology.
15. Bompa, T. O., Buzzichelli, C. Theory and Methodology of Training.
16. Ismoilov, A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent.
17. Kerimov, F. Sport pedagogikasi. Toshkent.
18. Salomov, R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi. Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.